

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Tursunova Zamira Jumayevna**

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 12-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlanirish mexanizmlari o‘rganilgan. Uning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. O‘qituvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlanirish bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, aktyorlik va notiqlik, kreativ, nostandard fikrlash, xulqatvor.

**Аннотация:** В статье рассматриваются механизмы развития инновационной компетентности будущих учителей начальных классов. Анализируются его современные тенденции. Даны предложения и выводы по развитию творческого мышления учителей.

**Ключевые слова:** компетентность, действие и речь, творческое, нестандартное мышление, поведение.

**Abstract:** The article examines the mechanisms of developing the innovative competence of future primary school teachers. Its modern trends are analyzed. Proposals and conclusions on the development of creative thinking ability of teachers are given.

**Key words:** competence, acting and speaking, creative, non-standard thinking, behavior.

### **KIRISH**

Jahonda yuz berayotgan ta’lim qadriyatlariga bo‘lgan yondashuvning o‘zgarib borishi sharoitida o‘qituvchilarning kasbiy sifatlariga nisbatan talablarning kuchayishi ularning kasbiy mahoratini oshirish uzlusizligiga erishish va innovativ ko‘nikmalarini rivojlanirishga e’tiborni dolzarblashtiradi. Bu o‘z navbatida, o‘qituvchida yangiliklarga ochiqlik, ijodiy fikrlash va faollik, jamoada ishlash, tizimli tahlil, to‘yingan axborot muhitida eng muhimlarini ajratish, muammoni aniqlash, tushunish, yechim topish, o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish va tashabbuskorligini ro‘yobga chiqarish salohiyatini ifodalovchi innovatsion kompetensiyaga ega bo‘lish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Xalqaro miqyosda o‘qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligi mushtarakligini ta’minlash, ta’lim va tarbiya amaliyotida ro‘y beradigan yangiliklar asosida kasbiy faoliyatini samarali yuritish qobiliyatini rivojlanirish, o‘qitish jarayonini individuallashtirish, tabaqalashtirish, uyg‘unlashtirish, faollashtirish, qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muhitida innovatsion faoliyatni rag‘batlanirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sohada innovatsion jarayonlarning kiritilishi ta’lim-tarbiya mazmunini tizimli yangilab borish, erishilgan natijalarni refleksiv tahlillash, o‘qitishning yangi texnologiyalari, metodikalarini ishlab chiqish,

o‘qituvchining innovatsion faoliyati va kompetensiyasini ilmiy tadqiq qilishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda ta’lim berish va olish sifatini yaxshilash, o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishning natijador texnologiyalarini joriy qilish, pedagoglar bilimi, mahoratini baholash, ularni rag‘batlantirish, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘qitish samaradorligiga alohida e’tibor qaratildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda o‘qituvchilarda kasbiy, shuningdek, innovatsion kompetensiyani rivojlantirish orqali ta’lim muhitini rivojlantirish ehtiyoji mavjud. O‘zbekiston Respublikasining yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash” vazifasi belgilanganligi ta’lim tizimida yangiliklarga ochiqlik, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy-metodik maydonchalar yaratish, uzlusizlik va individuallashtirish asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirish, jarayonga innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni joriy qilishga doir tadqiqotlar mamlakatimizda R.Djuraev, A.Ibragimov, X.Ibraimov, N.Muslimov, R.Safarova, O’.Tolipov, G.Fayzullayeva, N.Shodiyev, B.Xodjayev, Sh.Urokov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. O‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligi, uzlusizlik, kasbiy kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘qituvchilarni tayyorlash, kasbiy mahoratini oshirish, tashabbuskorlikni rivojlantirish muammolari MDHning A.Adolf, A.Verbiskiy, N.Ilina, A.Markova, V.Nikitin, A.Novikov, I.Remorenko, S.Fomenko, A.Xutorskoy, N.Yusufbekova va boshqalarning izlanishlarida pedagogik-psixologik jihatdan tadqiq qilingan. Xorijiy mamlakatlar olimlaridan M.Barber, S-T.Holm, M.Herskovits, D.Kash, M.Knowles, R.Merton, M.Mourshed, S.Rogers, R.W.Rycroft va boshqalarning ishlarida kompetensiya, innovatsiya, o‘zaro ta’sirni samarali boshqarish, pedagogik faoliyatda qo‘llab-quvvatlash, shart-sharoitlar, faollashtirish, motivatsiyaning ilmiy-amaliy xususiyatlari aniqlangan. Pedagoglarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish, kasbiy va innovatsion kompetentlikni takomillashtirishga doir ko‘pgina nazariy manbalarning mavjudligiga qaramay, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish, anglangan faoliyatni amalga oshirish, strategik yo‘nalishlarini belgilash, ta’lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirishga doir muammolarning saqlanib qolayotganligi mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

### **MUHOKAMA**

O‘qituvchilarda innovatsion kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tahlil etilgan, shu bilan birga, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari

sharhlangan hamda konseptual yondashuvlar o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish omili ekanligi ta’kidlangan. “Innovatsiya” atamasini sharhlashga doir harakatlar tadrijiy rivojlanib borgan bo‘lib, turlicha izohlarni kuzatish mumkin. Jumladan, uni bir madaniyatning ba’zi elementlarini boshqasiga kiritish yoki ularning birlashishi natijasida yangisining shakllanishi kabi qarashlar ham mavjud. Yana bir e’tiborga molik tushuncha “innovatsion ta’lim” atamasi bo‘lib, u yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga asoslangan, yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradigan, o‘zgaruvchan jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladigan shaxsni shakllantirishni bildiradi. Shuningdek, innovatsion ta’lim nafaqat alohida shaxsni shakllantirishga, balki butun jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ta’limiy tadbirdir. Bunday ta’limda kechuvchi innovatsion jarayonlar ham muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan tamoyillarga tayanadi.

O‘qituvchida innovatsion qobiliyatni rivojlantirishda ta’lim mazmuni va texnologiyalari, xususan, ushbu jarayonni boshqarishga nisbatan tizimli yangiliklarni, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan pedagogik innovatsiyalar ma’lum bir qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Tadqiqotimiz davomida ta’lim sohasida kuzatiladigan innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari innovatsion kompetensiyasini tashkil etuvchilarining tuzilmasini ishlab chiqdik. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning individual dasturini yaratishda, avvalo, dastur va dastur tuzilmalari tushunchalarining mohiyatiga to‘xtalib o‘tish muhim, deb hisobladik. Tuzilayotgan dastur doimo uni amalga oshiradigan shaxs bilan bog‘liq bo‘lib, aniq maqsadga qaratilgan eng yaqin harakat rejasi yoki o‘quv mazmunining qisqacha bayoni toifasida namoyon bo‘ladi. Shuni ham qayd etish zarurki, ta’lim amaliyotida innovatsiyalarning kiritilishi o‘qituvchining o‘zini o‘zgartira olish, mobillik, faoliyatiga yangiliklarni singdirish qobiliyati va aniq belgilangan strategik rejalari mavjudligiga chambarchas bog‘liq. Sohada sifat o‘zgarishlarini ta’minalash nafaqat o‘qituvchi, balki tizim va uni boshqaruv vertikalida ham innovatsiyalarga ochiqlik kafolatlilik darajasini oshiradi.

Innovatsion muhit konsepsiyasida ta’limda innovatsion jarayonlarning mikro va makro darajalari, maktablarda innovatsion faoliyatning amaliy, subyektiv va tashkiliy boshqaruv jihatlari, innovatsiyalarni tatbiq etish darajasi o‘qituvchilarning faoliyatiga ilmiy va uslubiy bog‘liqligi, innovatsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Uning nazariy asoslari sohaning negizini tashkil etuvchi qonunlar, omillar va tamoyillar majmui, o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va tashkiliy jihatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan qoidalar majmui bilan ifodalanadi. Innovatsion muhit gipotetik-deduktiv usuli orqali aniqlanadigan quyidagi qonuniyatlarga bo‘ysunadi: - ta’lim muhitini o‘zgartirishning maqsad va vazifalari jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy holat, rivojlanish an’analari,

innovatsion sharoit, o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini shakllantirish zarurati;

- ta'lism sohasining makro va mikro darajalari o'rtasidagi munosabatlar metodologik asos va tamoyillarning birligi;

- innovatsion muhitning faoliyat ko'rsatishi, obyektiv ravishda uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'rtasidagi tashqi ta'sirlar, munosabatlar va aloqalarga bog'liqligi;

- innovatsion muhitda o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini shakllantirish ta'lism tizimidagi yangiliklarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va hamrohlik qilishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirilgan harakatlarda amalga oshirilishi.

O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga nazariy tayyorgarligi pedagogik innovatsiyalar asoslari bilish, nostonart fikrlash tarzida namoyon bo'ladigan ko'nikmalarini ifodalaydi. Uning asosiy tashkil etuvchilari konstruktiv va gnostik harakatlardir. Faoliyatning ikkala turi o'qituvchida analitik, prognostik, proyeksiyon, aks ettirish ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

### **XULOSA**

Yuqorida keltirilgan xulosalar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirishga doir quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi: ta'limi boshqaruv organlari tomonidan boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirish uchun yetarlicha sharoit (umumta'lim maktablaridagi innovatsion muhitni rag'batlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, innovatsion faoliyatning buyurtma, ehtiyoj, motivlarga asoslanishiga yo'naltirish va b. yaratilishiga e'tiborni kuchaytirish; o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik maydonchalarini ko'paytirish, individual ta'lim traektoriyasini tuzish, mustaqil ta'limi rag'batlantirish, o'zaro tajriba almashish muhitini yaratish, ilg'or yondashuvlarni tezkor singdirish muhitini yaratish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z faoliyatiga innovatsiyalarini kiritishga doir muammolarni aniqlash, ularni anglash va mustaqil ravishda hal etish qobiliyatini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tadbirlarni ularning ish joyidan uzilmagan holda olib borishni yo'lga qo'yish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirishni strategik rejalashtirish, strategik g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Pusatova M.E. Criteria For the Effectiveness of the Strategy For the Formation of Innovative Competence of Teachers // Middle European Scientific Bulletin // ISSN 2694-9970. Vol. 23, Apr. 2022. – P. 121-124.

2. Pulatova M.E. Pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirish strategiyasi samaradorligini oshiruvchi pedagogik shart-sharoitlar // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2022. – № 5. – B. 35-38 (13.00.00; №17).

3. Pulatova M.E. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2020. – № 1 (77). – B. 331-334 (13.00.00; №3).

4. Pulatova M.E. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonining pedagogik imkoniyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2022. – № 3. – B. 179-182.

5. Pulatova M.E. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // “Investitsion va innovatsion faoliyatni rivojlantirish: hozirgi holat, muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari. – Samarqand, SamISI, 2020. – B. 238-241.

6. Pulatova M.E. The Importance Of Using Modern Pedagogical Technologies In Preparing Teachers For Innovative Activities // Proceedings of International Conference on Digital Economy: Problems, Solutions, ProspectsOrganized by Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan – International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology [IJIERT]. ISSN: 2394-3696, Website: [www.ijiert.org](http://www.ijiert.org), May, 2020. – P. 279-283.

7. Pulatova M.E. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari // “Ta'limda xalqaro baholash tadqiqotlari: amaliyotdagi muammolar va istiqboldagi vazifalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2022. – B. 312-313.